

# ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI

## SHARTNOMASI

2022 yil "18" yanvar

№ 20-130 son

Yuqori Chirchiq TETK

T(Sh)ETK nomi

**"TOSHKENT HETK" AJ Yuqori Chirchiq TETK** tuman (shahar) elektr ta'minoti korxonasi (keyingi o'rinlarda "Korxonasi" deb yuritiladi) № \_\_\_\_\_ sonli **Bosh ishonchnoma** asosida faoliyat yurituvchi rahbari

Miryusupov Dilmurod Toirovich bir tarafdan va

(tuman(shahar) elektr tarmoqlari korxonasi rahbarining F.I.Sh.)

### **•Yuqori Chirchiq tumani Irrigatsiya bo'limi**

(iste'molchining nomi)

(keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) ning nizom asosida

faoliyat yurituvchi rahbari Turovov Jahongir Botir o'g'li ikkinchi

(iste'molchi rahbarining F.I.Sh.)

tomonidan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

### **I. SHARTNOMA PREDMETI**

Ushbu elektr ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rinlarda - Shartnoma deb ataladi) muvofiq, "Ta'minotchi korxonasi" "Iste'molchi"ga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali yetkazib berish va "Iste'molchi" iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

### **II. YETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI XISOBGA OLISH**

2.1. Elektr energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi: Aktiv 3333.33 kVt.s. reaktiv 0 kVar.s.

2.2. Yetkazib beriladigan energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi 1 499 999,50 (bir million to'rt yuz to'qson to'qqiz ming to'qqiz yuz to'qson to'qqiz so'm ellik tiyin) so'mni, tarif bo'yicha 0 tashkil etadi. tarif turi: tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki axoliga tenglashtirilgan, (keraklisi yozilsin)

2.3. "Iste'molchi"ga yetkazib beriladigan elektr energiyasining oylar kesimidagi yillik xajmi ushbu shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

2.4. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasining haq to'lanishi lozim bo'lgan hajmi ushbu shartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan xisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida, hisobga olish priborlari ulangan tok va kuchlanish transformatorlarining transformatsiya koeffitsientlari inobatga olingan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchilarning (maishiy iste'molchilar va tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari) elektr energiyasini xisobga olish uskunalari, shuningdek elektr energiyasini xisobga olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari xisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslovidan o'tkaziladi, xududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan bepul o'rnatiladi, plombalanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.